



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 15-mart, shanba,
32 (24.058)-son

O'zbek xalq
maqoli

Bironing
bergani -
ko'rgilik,
mehnatning
bergani -
to'yulik

Zarafshon

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

O'TGAN YIL YAKUNLARI VA BU YILGI REJALAR HAQIDA HISOBOTLAR TINGLANDI

14-mart kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining sakkizinchi sessiyasi o'tkazildi. Sessiya ishini Kengash raisi Sh.Negmatov boshqardi.

Deputatlar dastlab "O'zbekiston-2030" strategiyasining ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan viloyat hokimining o'rinbosari - oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Z.Saidovanning hisobotini tingladi.

Viloyat hokimi o'rinbosari o'tgan yil xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar haqida hisobot berdi. Qayd etilishicha, 2024-yilda 156 nafar og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan, turarjoyga muhtoj xotin-qizlar uy-joylari bilan ta'minlangan. Bu yil yana 110 nafar shu toifadagi ayollarning muammosini hal etish rejalashtirilgan. Ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan 210 nafar xotin-qizlarda murakkab jarohlik amaliyotlari o'tkazildi, ixtisoslashgan tibbiy markazlarda salomatligini tikladi.

"Ayollar haftasi"ga kiritilgan 104 ming nafar ehtiyojmand xotin-qizlarning barchasiga belgilangan tartibda yordam ko'rsatildi. Xususan, 38 ming 758 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar bandligi ta'minlandi. Joriy yilda "Ayollar haftasi"ning 6-bosqichida viloyat bo'yicha 104 ming 509 nafar xotin-qizga yordam ko'rsatilishi belgilangan.

Z.Saidovanning qizlarni erta turmushga berish, noqonuniy va erta nikohlarning oldini olish, oilaviy ajrimlarni kamaytirish va farzandlari uchun aliment oluvchi xotin-qizlar manfaatlarini himoya qilish borasidagi ishlar yuzasidan ma'lumotlari bo'yicha deputatlar o'z munosabatini bildirib, taklif va tavsiyalarini bayon qildilar.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatdagi Xalq qabulxonasi mudiri M.Turdiyev aholi murojaatlari va muammolari bilan ishlash holati yuzasidan axborot berdi.

O'tgan yil davomida Prezident virtual va xalq qabulxonalariga viloyatimiz aholisidan 124 mingdan ziyod murojaat kelib tushgan bo'lib, ularning (82 foizi) qanoatlantirilgan, - dedi M.Turdiyev. - Jumladan, 53 mingdan ortig'i (44 foizi) ijobiy yechimini topgan. Lekin murojaatlarni ijobiy hal etish darajasi Nurobod (40 foiz) va Urgut (41 foiz) tumanlarida eng past bo'ldi. Eng ko'p murojaatlar Paxtachi, Oqdaryo, Past Darg'om tumanlari, Kattaqo'rg'on va Samarqand shahriga to'g'ri keldi. Murojaatlarning asosiy qismi ijtimoiy ta'minot, ijro ishi, aliment va qarz undirish masalalari, xizmatchilar faoliyati va xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'ldi. Yil davomida

17832 ta takroriy murojaat kelib tushgan bo'lib, bu turdagi murojaatlar Past Darg'om, Kattaqo'rg'on, Paxtachi, Payariq tumanlari va Samarqand shahridan tushgan. Aholi murojaatlarining 1169 tasi rahbarlar shaxsiy qabulini uyushtirishga doir bo'lib, jumladan, 391 kishi Prezident qabul bo'yicha murojaat qildi.

Axborot yuzasidan murojaatlar bilan ishlashda kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ullardan izoh so'raldi.

Kun tartibiga muvofiq, viloyatda ichimlik suvi va oqova tizimini takomillashtirish yuzasidan 2024-yilda amalga oshirilgan hamda joriy yilga mo'ljallangan ishlar yuzasidan "Samarqand suv ta'minoti" aksiyadorlik jamiyati direktori T.Bojobev hisobot berdi.

Hisobotda keltirilishicha, o'tgan yil 154,3 milliard so'm mablag'lar ajratilib, 588,5 kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlari hamda 602 ta ichimlik suv inshootini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilgan. 6 ta oqova suv tozalash inshooti qurilgan. Viloyat prokuraturasi yordami bilan jamiyat tasarrufida bo'lgan 509 ta suv inshootida ta'mirlash, raqamlashtirish va obodonlashtirish ishlari olib borildi. Jumladan, 317 ta suv inshootida raqamlashtirish tizimini o'rnatish maqsadida va doimiy ishlashini ta'minlash, nazorat qilish uchun 155 ta suv inshootida video kuzatuv kameralari, 326 ta quyosh panelli tungi yoritish chiroqlari, 63 ta zararsizlantirish uskunalari o'rnatildi.

2025-yilda viloyat aholisining ichimlik suv ta'minotini yaxshilash maqsadida 134 ta obyektga 113 ta suv inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish hamda 671,1 kilometr ichimlik suv tarmoqlarini tortish bo'yicha takliflar berilgan. Xalqaro moliya institutlari, jumladan, Jahon banki ishtirokida Kattaqo'rg'on shahrida 66 million AQSH dollari miqdorida mablag' sarflanib, sutkasiga 20 ming m3 quvvatli oqova tozalash inshooti, 3 ta suv inshooti, 64 kilometr suv va 48,9 kilometr oqova tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish belgilangan. Ushbu loyiha natijasida 36 ta mahallada yashovchi 85,6 ming aholi ichimlik suvi va oqova xizmati bilan ta'minlanadi.

Sessiyada, viloyatda 2025-yilda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida tanlangan mahallalarda elektr energiyasi barqaror yetkazib berilishini yaxshilash hamda ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha dasturga kiritilgan takliflarni ko'rib chiqish va ma'qullash, viloyat mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish, xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida va boshqa masalalar ham ko'rib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Davlat boshqaruv organlariga ishga o'tganligi munosabati bilan xalq deputatlari viloyat Kengashiga 49-Ravonak saylov okrugining saylangan deputat Dilfuza Azizova hamda 58-Jozmon saylov okrugining saylangan deputat Mirzo Ixtiyorovning deputatlik vakolati ularning o'z arizasiga ko'ra muddatidan oldin tugatildi.



TADBIRKORLAR TOYLOQDA YIG'ILDI

Viloyat hokimligi huzuridagi Tadbirkorlar maslahat jamoatchilik kengashining navbatdagi sayyor yig'ilishi Toyloq tumanida o'tkazildi.

Tadbirida viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev ishtirok etdi va tumandagi yirik korxonalar - "Siyob Group" ko'p tarmoqli xolding kompaniyasi ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishdi. Ma'lumotlarga ko'ra, korxonada 80 turdan ortiq sut mahsulotlari ishlab chiqariladi va dunyoning o'ndan ortiq davlatiga eksport qilinmoqda. Bu yerda nafaqat toyloqliklar, balki viloyatimizning boshqa hududlaridan kelgan ishchi-xizmatchilar ishlamoqda.

Tadbirkorlar maslahat jamoatchilik kengashining navbatdagi yig'ilishi avvalida "Siyob Group"

ko'p tarmoqli xolding kompaniyasi mas'ullari qand lavlagidan shakar ishlab chiqarish loyihasini taqdim etdi. Ta'kidlanishicha, 100 tonna lavlagi xomashyosidan 15 tonna sifati shakar olish mumkin. Agar korxonada tashkil etilsa, viloyat iqtisodiyotiga katta daromad kelishi, eksport salohiyati ortishi, 100 dan ziyod ish o'rni yaratilishi aytiladi.

Tadbirkorlar kengashida Toyloq tumani hokimi B.Bobonazarov hududning investitsiyaviy imkoniyatlari, kelgusi yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar haqida ma'lumot berdi. Shuningdek, startap va ijtimoiy loyihalar taqdimotlari o'tkazildi.

Kengash a'zolari loyihalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirdi.

O'z muxbirimiz.

Samarqand va Fransiyaning Nitsa shahri ishbilarmonlari hamkorlik qiladi

Ayni paytda viloyat hokimi o'rinbosarlari O.Hamroyev hamda J.Haydarov boshchiligidagi tadbirkorlarimiz Fransiya.

Delegatsiya a'zolari Nitsa shahri meri Kristian Estrosi bilan uchrashib, o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, bir qator sohalarda qo'shma loyihalarini, jumladan, turizm oqimini oshirish, shaharlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish, madaniyat kunlarini o'tkazish, Nitsa shahrida milliy taomlar oshxonasini tashkil etish masalalari muhokama qildi.

Uchrashuv yakunida Samarqand shahri va Nitsa shahri o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish



to'g'risida kelishuv imzolandi. Shuningdek, "HALIOTIS-2" korxonasi oqova suvlarni qayta ishlash va shahar infratuzilmasini yangilash bo'yicha tajribalar almashildi.

YASHILLIKKA KAFOLAT KERAK

Biz uni yarata olyapmizmi?

Yer ustidagi haqiqiy jannatni asrlar davomida ajdodlarimiz yaratgan. O'zbekiston bag'rida o'sayotgan nabotot olamining shuhrati olamga mashhur. Alohida giyohlar, daraxtlar, mevalar xususida esa g'ururimiz bundan-da bo'lak. Biroq zamona zayli tabiatga munosabatni o'zgartirdimi? Harqalay, bu mavzu yana birinchi o'ringa chiqdi. Aniqroq qilib aytganda, ota-bobolarimizdan qolgan bog' yaratish, daraxt ekish, ziroatni inson manfaatiga xizmat qildirish an'anasini unutmamiz bois biz bu ishni qaytadan tashkil etyapmiz. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yangidan barpo etilayotgan mahalla, shaharcha, dam olish maskanlari va bog'rog'larda aynan shu an'analar talabi hisobga olinmoqda.

Xo'sh, bu talablar nimalardan iborat? **Birinchi**dan, daraxt niholini qayerga o'tqazishni aniqlash. **Ikkinchi**dan, niholni sug'orish manbasini yaratish. **Uchinchi**dan, hududbop, uning tabiati-ga mos daraxt niholini tanlash. **To'rtinchi**dan, ekilgan har bir nihol uchun mas'ul birlashtirish. To'g'ri, har yili kuzda va bahorda ko'chat o'tqazamiz. Samarasi yomon emas, harnachuk ekan nihollarimizning muayyan qismi tomir otyapti. Lekin bir qator muammolar borki, agar ularni bartaraf eta olsak, qilayotgan ishimiz yaxshi sama-

ra berishi shubhasiz. Avvalo, ariqlarni tozalashimiz, ularda muntazam (hech bo'lmaganda vaqti-vaqti bilan) suv oqib turishini ta'minlash, tomchilatib sug'orish uskunalarini o'rnatish, nihollar parvarishi uchun albatta, mas'ullar birlashtirish va ularni rag'batlantirish choralarini ko'rish lozim. Ayrimlar axir bu ota-bobomizdan qolgan meros-ku, daraxt ko'kartirganga ham pul berishimiz kerakmi, deb o'ylishi mumkin. To'g'ri, uйда, hovlisida, hovli atrofida, ishxonada daraxt ekib ko'kartirish uchun birovi rag'batlantirish shart emas. Chunki bu insoniy burchimiz. Aslida, har



bir oila o'z uyi atrofida kerakli nihollarni tanlab o'stirsa, ana shu tadbirning o'zi ham ishimizning yarmini hal qiladi. Katta yo'l yoqalarida barpo etilayotgan xizmat ko'rsatish shoxobchalariga egalari ham shunday mas'uliyatni yuklash mumkin. Aholi yashaydigan joylardan uzoq hududlarda daraxt nihollari ekish, bog'lar barpo qilish nihoyatda ehtiyotkorlik va puxta reja bilan amalga oshirilishi lozim. Bu borada raqamlar uchun shoshilish samara bermaydi. Yo'l yoqalarida qarovsizlikdan qurib qolgan bog'rog'lar, daraxtlar fikrimizni isbotlab turibdi. Umuman, tekin narsa doimo qadrsiz bo'ladi. Demochimanki, bugun mutaxassislarni, keksa bog'bonlarni, nuroniylarni ishga solib, ularning tajribasidan foydalanaylik. Aholi

o'rtasida nafaqat nihol o'tqazish, balki suvni tejash, atrofi sarayom-sarishta saqlash yuzasidan subhatlar tashkil etaylik, hasharlar uyushtiraylik. Ana shunday tajribalar ommalashadi, odamlar bizga ergashadi. Davlat loyihalarida, rejalarida "Yashil makon" loyihasi bo'yicha garchi mas'ullar, manzillar, mablag'lar masalasi yechimini topgan bo'lsa-da, ular uchun muhimi - kafolatni yaratishimiz kerak. Kafolat - bu - ana shu dasturning oqilona, rejali bajarilishi, mablag'dan samarali foydalanilishi, va ekilgan nihol taqdiri uchun javobgarlikning shakllanishi. Kafolat - bu har birimizning yashillik yaratishiga hissa qo'shishga intilishimiz, ko'kargan nihollardan zavqlanishimiz.

Farmon TOSHEV.

"Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" ko'rik-tanlovi qizg'in pallasiga kirdi. Uning mahalla bosqichida g'olib bo'lganlar endi tuman va shaharlar darajasida bellashishmoqda.

Birinchi o'ringa elektromobil

Aholi orasida sog'lom-turmush tarzini targ'ib qilish, xususan, "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalarni ommalashtirish, bu borada namuna ko'rsatayotganlarni munosib rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan ko'rik-tanlovda viloyatimiz mahallalari ham faol qatnashmoqda.

Ko'rik-tanlovning viloyat bosqichi joriy yilning 17-mart kuni o'tkaziladi. Tanlovning har bir bosqichida uch nominatsiya bo'yicha ham g'olib va sovrindorlarga qimmatbaho sovg'alar topshirilishi belgilangan. Respublika bosqichida birinchi o'rinni egallaganlarga esa bosh sovrin - elektromobil topshiriladi.

Munosabat



Jamiyatda eng ko'p va qizg'in muhokama qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi ilk marotaba yangi formatda, davlat rahbari ishtirokida ko'rib chiqilishi kuchli siyoiy irodani namoyan qildi.

Jazoning o'zi kifoya emas



Prezidentimiz ma'ruzasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlariga yangi "impuls" beradi va jadallashtiradi. Bunday deyshimga sabab, ma'ruzada 55 ta aniq maqsadga yo'naltirilgan topshiriq berildi. Ushbu topshiriqlar doirasida 5 ta qonun, Prezidentning 12 ta farmon va qarorlari ishlab chiqilishi belgilangan ham masalaning naqadar ko'lamdor ekanidan dalolat beradi.

E'tirof etish kerak, keyingi yillarda korrupsiyaga barham berish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunlar qabul qilindi, maxsus vakolati agentlik tashkil etildi. Hukumat faoliyatining ochiq va oshkorligini ta'minlash, byurokratiyani kamaytirish va davlat xizmatlarini soddalashtirish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlar amaliyotga keng joriy etildi. Barcha davlat idoralariida kompayens va samaradorlikni baholash reyting tizimlari yo'lga qo'yildi. Davlat xaridlari raqamlashtirildi. Har yili Toshkentda an'anaviy Xalqaro aksikorrupsiya forumi o'tkazib kelinmoqda. Eng asosiysi, jamoatchilik, jurnalistlar yaqin o'tmishdan farqli ravishda korrupsiya muammosi haqida ochiq-oydin gapiryapti, yozyapti va uni bartaraf etishga ta'sir

ko'rsatyapti desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Lekin bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish, jamiyatimizda, har bir tashkilot, muassasada korrupsiyaga murosasiz munosabat shakllanishi lozim. Zotan korrupsiya islohotlar yo'lidagi asosiy to'siq bo'lib, odamlarning davlat va qonunlarga bo'lgan ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlantirish va xavfsizlikka jiddiy tahdidga aylanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir fuqaroning ichki axloqiy-ruhiy maslagi va e'tiqodiga aylanishi kerakki, bu korrupsiyaga qarshi ma'rifatning o'zagini tashkil qiladi. Qonun talablarining to'laqonli amalga oshirilishi mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini oshirishga, rivojlanish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda korrupsiya illatiga qarshi kurashishda jazo belgilashning o'zi bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Kundan kunga turi va shakli o'zgarib, ko'payib borayotgan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning profilaktikasini kuchaytirishga qaratilgan mexanizmlarni ishga tushirish, bu borada mavjud huquqiy asosni takomillashtirishimiz zarur. Qolaversa, mamlakatimizning kelajagini va obro'-e'tiborini qadrlaydigan har bir vijdonli fuqaro korrupsiya tahdidining zararli oqibatlarini doimo esda tutmog'i va unga qarshi kurashmog'i lozim deb o'ylayman.

Himmat OQBO'TAYEV,
"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi viloyat kengashi raisi, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

Ayol kishining jamiyatda o'z o'rnini topishi, ma'lum bir maqsadlarga erishishi har doim ham oson bo'lmagan. Ammo shu tomoni borki, qiz bola maqsad qilsa, juda ko'p rejalarini amalga oshirishi mumkin. Faqat bu reja maqsadli bo'lsa, oilada, to'g'ri yo'nalishda shakllansa, ayni muddao. Bugun mamlakatimizda xotin-qizlarning ilm egallashi va bu yo'lda yuqori natijalarga erishishi uchun juda yirik ishlar amalga oshirilayotgani biz, olimalarni quvontiradi.

Bugungi kunda yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining 52 foizdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil etadi. 6 ming 200 dan ko'proq xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgani, ilmiy ishlanmalarning 25 foizini olimayollarmiz yaratayotgani

Ayollari o'qimishli yurtda taraqqiyot bo'ladi



ham jamiyatda ularning o'rni mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan poytaxtda o'tkazilgan anjumanda mamlakatimiz rahbari qo'lidan yuksak mukofot – II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni olar ekanman, xayolimdan shu fikrlar o'tdi. Bu mukofotni bo'lg'usi olimalarga rag'bat, o'zim faoliyat yuritayotgan universitet jamoasiga bildirilgan ishonch sifatida qabul qildim. Mamlakatimiz rahbari o'z nutqi davomida bir necha marta "Ayollari o'qimishli va kasb-hunarli bo'lgan yurtda tinchlik va taraqqiyot bo'ladi. Ayollari ma'rifatli bo'lgan xalq albatta, baxtli bo'ladi", degan fikrlarni bildirib o'tdi.

Salkam 40 yildan buyon Mirzo Ulug'bek nomidagi Samar-

qand davlat arxitektura-qurilish universitetida talabalarga saboq berib kelmoqdaman. Oliyog'ha yagona ayol fan doktori, san'at kafedrasini professori sifatida arxitektura sohasida ko'plab magistrant va tadqiqotchilarga ilmiy rahbarlik qildim. Keyingi yillarda me'morchilik, dizayn qiziqish ortgani, talab ko'payganligi tufayli sohaga xotin-qizlarning kirib kelishi ham ko'paydi. Bu esa kelgusida arxitektura va dizayn yo'nalishida ham doktorlik darajasiga erishadigan xotin-qizlarimiz safi kengayishidan dalolat beradi.

Dilshoda SULTONOVA,
II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni sohibasi.

Qonunbuzar 70 million so'm jarima bilan "siylandi"

Past Darg'om tuman ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi inspeksiyasi davlat inspektorlari tomonidan o'tkazilgan navbatdagi reytd tadbirlarida noqonuniy qum-shag'al kovlab olayotgan fuqaro aniqlanib, unga qariyb 70 million so'm jarima qo'llanildi.

Tumanning Oshiq ota mahallasi hududidan oqib o'tuvchi Qoradaryo daryosi o'zanidan shu hududda yashovchi fuqaro T.D. tomonidan noqonuniy tarzda qum-shag'al aralashmasi qazib olinib, yuk tashuvchi mashinalarga yuklab berilayotganligi aniqlandi. Holat yuzasidan ushbu qonunbuzarga 50 million 77 ming 440 so'm jarima qo'llanildi.

Haydovchining texnika vositasi jarima maydonchasiga qo'yildi.

Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi axborot xizmati.



Xorijga borishdan maqsad o'qishmi yoki ishlash?

Keyingi yillarda mamlakatimiz yoshlarining o'qishi, kasb-hunar o'rganishi, mehnat qilishi uchun qator imkoniyatlar yaratilyapti. Ayniqsa, xorijda o'qish istagi bo'lgan yigit-qizlar uchun ham keng yo'l ochilgan. Bugun 1724 nafar samarqandlik yosh xorij oliy ta'lim muassasalarida o'qiyapti. Ularning aksariyati o'qish bilan birga ishlashni ham maqsad qilgan, albatta.

Ayni paytda Bulung'ur tumani yoshlarining 110 nafari xorijda ta'lim olyapti. Bunday yoshlarning safi yil sayin ortib boryapti.

Yaqinda ingliz tilidan C1 darajali milliy sertifikatga ega bo'ldim, - deydi bulung'urlik Sardor Aliqulov. - Endi xalqaro IELTS imtihonidan 8 baldan yuqori natijaga erishib, o'qish uchun xorijga ketmoqchiman. Buyuk Britaniya yoki Germaniya davlatida nufuzli oliy o'quv yurtlarining birida ta'lim olishni maqsad qilganman. Vaziyatga qarab, o'zim uchun ish ham topaman. Ammo asosiysi, o'qish. Ilm olgach, mutaxassisligim bo'yicha ishlash, tajriba orttirgach, yurtga qaytaman.

Yana shunday yoshlar borki, boshqa mamlakatga faqat o'qish va oliy ma'lumotli bo'lib qaytish uchun beradi.

Bir paytlar mamlakatimizda oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish osonmasdi, - deydi samarqandlik yoshlardan biri Zebo Ismatullayeva. - O'sha davrda bir necha bor harakat qilib, talaba bo'lolmadim. Keyin shashtim so'ndi. Bir tanishimning taklifi bilan Xo'jand davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakultetining sirtqi yo'nalishiga o'qishga topshirdim. Kirish oson, ammo o'qib bitirishning o'ziga yarasha qiyinchiliklari bo'ldi. Nima bo'lganda ham o'qigan talaba imtihondan yiqilmaydi. Ahamiyatli, universitetga kirgan yilim shartnoma



to'lovi qancha bo'lsa, tugatgumimcha oshirilmadi. 5 yil o'qib, diplomli bo'ldim. Hozir nashriyotda ishlayapman.

Jahon tillari universiteti talabasi Shahina G'afforova o'qishni 3 kursdan boshlab Koreyaning Chung-Ang universitetida davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

- Universitetimiz xorijning nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi, - deydi u. - Talabalar almashinuvi hamkorligi doirasida o'qishimni Koreyada davom ettirish imkoniyati

tug'ildi. Buning o'zi bo'lmadi, albatta. Imtihondan o'tdik, yuzlab yoshlar orasidan 4 nafar talaba tanlab olinadi. Koreya ta'lim jarayoni menga ma'qul keldi. Bu yerda dastlab barcha o'qituvchilarning darsida qatnashdik. Keyin ular orasidan o'zimizga ma'qul bo'lganini tanladik. Shuningdek, dars kunlarini ham o'zimiz belgiladik. Masalan, men haftada ketma-ket 4 kun o'qib, 3 kun dam olishni maqsad qildim. Bo'sh kunlarimda ishlash imkoniyati ham tug'ildi. Oshxonaxizmatchisi bo'lib ishladim. Bu avvalo, ota-onamga katta yordam bo'ldi. Qolaversa, pazandalik bo'yicha tajriba to'pladim. Ishim soatbay edi. Darsim ko'p bo'ladigan bo'lsa, ish soatimni belgirtirib, o'qishga harakat qildim. Sababi bu davlatda o'qituvchilar talabalariga o'qishi kerakligini eslatmaydi ham. Barcha o'zi uchun o'qiydi. Bir marta imtihondan yiqilsa, qayta sinovdan o'tkazilmaydi. Tanish-bilishchilik ham yo'q.

Shunday qilib, ta'lim olish uchun xorijga borayotgan yoshlarning barchasining ham maqsadi faqat o'qish emas. Ishlash, ota-onamga yordam bo'lsa, deydi. Yana bir toifa yoshlar borki, maqsadi faqat diplomli bo'lish. Ularning ongiga singdirilgan: "xorijda shunday ta'lim muassasalari borki, faqat shartnoma pulini to'lasang bo'lgani, diplomli bo'lishing tayin. Qaysi yo'nalishda bo'lsayam diploming bo'lsa, ish topish muammo emas". Afsuski, keyingi paytlarda bu ish bermoq yo'q. Yoshlarimiz qaysidir tashkilotga ishga kirish uchun ham imtihondan o'tish zarurligini bilib qo'yishlari lozim. Hatto tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan odamda ham ilm bo'lmasa, biri ikki bo'lishi qiyin.

To'Iqin SIDDIQOV.

"AYOLLAR DAFTARI" dan TADBIRKORLIKKA

Oqdaryo tumanidagi Pichoqchi mahallasini yong'oqchilar mahallasi, deb aytishadi. Chunki bir necha yildirki, mahalla ahli yong'oq chaqib, shu orqali daromad qiladi, pichoqchilik tadbirkorlar bu mahsulotni xorijga eksport qilish bilan shug'ullanadi. Mahallada faqat yong'oq oldi-soldisi amalga oshiriladigan bozorca ham mavjud. Bu yerda yurtimizning turli hududlaridan yong'oq keltirib sotiladi va olib ketiladi.

Keyingi yillarda mahallada avtomashina o'rindiqlari uchun jild tikish ham asosiy faoliyat turlaridan biriga, hozirgi tilda aytganda, drayverga aylandi.

Bahodir Ergashev boshlagan ushbu tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi xonadonlar bugun uchtaga yetdi va ularda yuzga yaqin xotin-qiz mehnat qilmoqda.

Nargiza Qurbonova ham dastlab ushbu tadbirkorlik tashkilotiga qo'shilgan bo'lsa, keyinchalik o'zi xonadonida jild tikishni yo'lga qo'ygan.

- 2021-yilda mahalla tomonidan "Ayollar daftari"ga kiritilgandim, - deydi Nargiza Qurbonova. - Mahalladagi hokim yordamchisi va xotin-qizlar faoli agar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lsam, imtiyozli kredit berilishi haqida aytishganida, tavakkal qilib, 30 million so'm kredit oldim-u 3 ta tikuv mashinasi va xomashyo xarid qilib, ish boshlaganman. Ungacha bu ishni ancha-muncha o'rganib olgandim. Tayyor mahsulotga xaridor aniq, uydandan kelib olib ketishardi. Keyin sekin-asta ishlarimiz yurishib, buyurtmalarimiz ko'paydi. Mashinkalarni ko'paytirdim, mahallamizdagi ishsiz ayollarni yonimga olib, ularni ish bilan ta'minladim. Hovlimizda qo'shima qurilish qilib, ikki qavatli ustaxonam quridik. Hozir sakkiz nafar ishchimiz bor. Turmush o'rtog'im va farzandlarim ham yordam berishadi. Endi yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ishlayapman.

Tadbirkor o'tgan yil faoliyatini kengaytirish maqsadida 50 million so'mga zamonaviy uskunalar xarid qilib, avtomobillar saloni uchun yana bir butlovchi buyum ishlab chiqarishni boshladi.

Mahallamizdagi 7400 aholining 3425 nafari ayollar, - deydi Pichoqchi mahallasi xotin-qizlar faoli Zarifa Tursunmurodova. - Ularning aksariyati uyida band, yong'oq chaqib, mag'zini eksportyor tadbirkorlarimizga sotadi. Shuningdek, uchta xonadonda avtomobillar uchun jild tikiladi. Masalan, Bahodir Ergashevning xonadonida 56 nafar, Nargiza Qurbonovanikida 8 nafar ayol ishlaydi. Bundan tashqari, uyida kasanachi sifatida ishlab, bu tadbirkorlarga tayyor mahsulotni solish uchun maxsus sumkalar tikib berayotganlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Nargizani ham "Ayollar daftari"dan chiqarish uchun unga kredit olib berishda ko'maklashgandik. O'z yashash xonasida ish boshlagandi, mana, faoliyatini yo'lga qo'yib, tikuvchilik bilan shug'ullanish uchun katta bino qurib oldi, zamonaviy tikuv mashinalari va dastgohlari oldi. Endi uning o'zi ham "Ayollar daftari"dagi xotin-qizlarni ish bilan ta'minlayapti. Yana bir mahalladoshimiz Lobarxon Nurullayeva ham o'tgan yil "Ayollar daftari"ga kiritilgach, 25 million so'm kredit olib, zamonaviy pech va boshqa vositalarni sotib olib, tort, har xil pishiriqlar tayyorlash, non ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Yana uch nafar ayolni ish bilan ta'minladi.

Ayrim kishilar qo'lida hunari yoki biror kasbga layoqati bo'lsa-da, uni ishga solib, tadbirkorlik qilishga, shu orqali daromad topishga ikkilanadi. Lobarxon va uning turmush o'rtog'i Eldor esa imtiyozli kredit evaziga zarur uskunalar xarid qilib, buyurtma asosida tort tayyorlash va qoliqli non pishirib sotishdan

cho'chimadi. Hozirda mahalla va yaqin atrofdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qoliqli non yetkazib beryapti. Tomorqadagi ikki sotixli issiqxonada parvarishlanayotgan limondan ham har yili 500-600 kilogramm hosil olib, ro'zg'orga qo'shimcha daromad bo'layotganini ta'kidlaydi.

"Ayollar daftari"ga kiritib, imtiyozli kredit taklif qilishganida turmush o'rtog'im bilan kelishib, keyin pech va unga zarur boshqa vositalarni sotib olib, tadbirkorlik faoliyatini boshladik, - deydi Lobarxon Nurullayeva. - Qisqa vaqtta ishni yo'lga qo'yib oldik. Mahalladoshlarimiz buyurtmalari asosida tort va pishiriqlar tayyorlab beramiz, to'rtta bog'chaga qoliqli non tarqataymiz. Oyiga o'rtacha 4-5 million so'm daromad qilyapmiz. Bundan tashqari, tomorqadan foydalanamiz, issiqxonamiz, chorva molimiz bor. Ishimiz rivojlanaversa, keyinchalik faoliyatimizni kengaytiramiz, tadbirkor sifatida ishlash niyatimiz bor.

Zarifa Tursunmurodovani ta'kidlashicha, bu yil mahalladagi 98 nafar xotin-qiz "Ayollar daftari"ga kiritilib, ularning bandligini ta'minlash, doimiy daromad manbaiga ega bo'lishga ko'maklashiladi. Bunda ularni mavjud ish o'rinlariga joylashtirish bilan birga xonadonida kasanachilik, chorvachilik bilan shug'ullanishi va tomorqada mehnat qilishi yoki tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun belgilangan tartibda yordam beriladi. Xususan, mahalladagi ishsiz xotin-qizlarning asosiy qismini ipak qurti boqishga jalb qilish rejalashtirilgan.

G. HASANOV.

Kambag'allikdan farovonlik sari



"URGUT SAVDO KOMPLEKSI"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

jannatmakon yurtimiz farzandlari va barcha hamkasblarini

NAVRO'ZI OLAM

bilan tabriklaydi!



Xizmatlar litsenziyalangan.

"TEMIRYO'L DEHQON BOZORI"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

viloyatimiz ahlini

NAVRO'Z

bilan samimiy qutlaydi!



An'anaga ko'ra, adabiy tarjimonlar nafaqat tilshunos, balki madaniy vositachi ham bo'lgan. Badiiy matnni tarjima qilish so'zlarni bir tildan boshqa tilga o'tkazish oddiy mashqdan qiyin, ya'ni u asl asarni belgilaydigan ma'no teranligini, hissiyotlarni ochib berishi kerak. Asarlarida iboralar, metafora va tashbehtar ko'p bo'lgan o'zbek adiblari uchun bu jarayonda tarixan tarjimonlarning o'rni beqiyos bo'lgan.

Sun'iy intellekt

o'zbek va jahon tillari o'rtasidagi to'siqni yo'qotadi

Masalan, O'rta Osiyo adabiyotining mashhur vakillaridan biri Chingiz Aytmatov asarlarini olaylik. Uning hikoyalari qirg'iz xalqining ko'chmanchi an'alariga singib ketgan va ko'pincha nozik falsafiy qarashlarni o'z ichiga oladi. Tarjimon nafaqat tilni bilishi, balki Chingiz Aytmatov hikoyasining qalbini zabt etish uchun qirg'iz xalqining madaniyati, hayot tarzini chuqur tushunishi kerak.

So'nggi yillarda tarjima sohasida sun'iy intellektga asoslangan vositalar o'sib bormoqda va ular tarjimaga yondashuvimizni tubdan o'zgartirdi. Dastlab tarjimadagi sun'iy intellekt asosan Google Translate, Gemini yoki ChatGPT kabi mashinali tarjima tizimlari bilan cheklangan. Bu tizimlar qoidaga asoslangan algoritmlarga tayangan, ular ko'pincha murakkab adabiy matnlar bilan ishlashda qo'pol va noaniq edi. Biroq neyron mashina tarjimasini kabi yanada murakkab texnikalar paydo bo'lishi bilan sun'iy intellekt sezilarli yutuqlarga erishdi.

Chuqur o'rganish algoritmlari bilan ta'minlangan neyro-mashina tarjimasini sun'iy intellekt tizimlariga katta hajmdagi ikki tilli matnning tahlil qilish va eng aniq tarjimalarni amalga oshirish imkonini berdi. Ushbu texnologiya tarjima sifatini sezilarli darajada yaxshiladi,



bu esa sun'iy intellektga ko'proq idiomatik va kontekstga bog'liq bo'lgan tarjimalarni yuqori aniqlik bilan bajarishga imkon berdi.

O'zbek adabiyoti uchun sun'iy intellekt asosidagi tarjima vositalarini ishlab chiqish adabiy asarlarni butun dunyo o'quvchilari uchun yanada qulay qilish uchun imkoniyat yaratadi.

Adiba KASIMOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Yadgarov Alisher Norjigitovichga (2022-yil 3-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Ibragimov Ismoilga (2020-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Nadirova Sabot Berdikulovna (2024-yil 16-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Kadirov Bazargan (1996-yil 22-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Kenjayev Sherzod Sunnatovichga (2022-yil 14-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Muminov Axror Tuychiyevichga (2017-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda.

Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Talibov Jamolga (2014-yil 20-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xamidova Muboraga (2011-yil 5-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Xamidova Marxbogga (1973-yil 18-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatov O'lmas To'rayevich notarial idorasida marhum Djalilova Maysara Rabimovna (2009-yil 26-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahatov O'lmas To'rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi, 26-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Suvonov Faxriddin Nizomiddinovich notarial idorasida marhum Eshpulatov Zarif Djumanazarovichga (2020-yil 14-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Suvonov Faxriddin Nizomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Charxin shaharchasi, M.Ulug'bek ko'chasi, 18-uy.

Ishitxon tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xaliqov Jamshid Abdurashidovich notarial idorasida marhum

Abdazova Amina Mitnboyevna (2021-yil 1-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xaliqov Jamshid Abdurashidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Ishitxon shaharchasi Ishitxon ko'chasi, 20-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Yarmuxamedova Mafuza Yarmuxamedovna (2020-yil 18-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Babayev Sharif Guliyevichga (2009-yil 3-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Kurbanov Ruzikul Adilovichga (2023-yil 2-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshmurov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko'chasi, 3-uy, 35-xona.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barro Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Xalikulov Erkinga (2023-yil 12-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barro Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Uzoqov Murodulloga (2023-yil 17-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

18-MART

Buvigul BERDIYEVA –

1954-yilda Jomboy tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.

19-MART

Hoji Muin Shukrullo o'g'li (1883-1942) Samarqand shahrida tug'ilgan. Jadid, ma'rifatparvar shoir, jurnalist.

25-MART

Ahmad SHOYMURODOV –

(1936-2020) Samarqandda tug'ilgan. Haykaltarosh. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

28-MART

Saidmohsud RAZZOQOV –

1949-yilda Jomboy tumanida tug'ilgan. Texnika fanlari doktori.

PERINATAL

markazning o'zi bilan ish bitmaydi

Aslida onalarning sog'lom farzand ko'rishini aynan mana shu nuqtada boshlanadi. Onaning sog'lom farzand ko'rishiga yuz foiz javob beradi, deb aytib bo'lmaydi-ku, harholda aynan shu xonadagi tekshiruvlardan so'ng farzandingiz nogiron tug'ilmasligiga kafolat bor.



Past Darg'om tumani markaziy poliklinikasidagi skrining xonasi yonida yigirma chog'li ayol navbatda turibdi. Ularning hammasi homilador ayollar, ko'rikka kelgan. Shifokorning qo'li qo'lga tegmaydi. Birinchidan, ularning barchasini ko'rikdan o'tkazish kerak, ikkinchidan, bu ishni navbatda homilador ayol ko'p bo'lishiga qaramay, tezlashtirib bajarish zarur. Keyingi soatlarda esa bu tekshiruvlarning natijasini jadvalga tushirish, homilasida muammosi borlar haqida birlamchi tibbiyot tizimiga ma'lumot berish lozim.

- Har kuni 50 nafarga yaqin homilador ayolni tekshiruvdan o'tkazamiz, - deydi tuman markaziy poliklinikasi prenatal shifokori Zebiniso To'ychiyeva. - Yil boshidan buyon rejali tarzda kelgan 210 nafar homiladorning to'g'ri qiz nafarida patologiya aniqlandi va homilasini to'xtatish tavsiya etildi. Bundan homilador ayollar yashaydigan hudud birlamchi tibbiyot xodimlari ham xabardor etildi va ular nazoratga olinishi kerak. O'tgan yilgi tekshiruvlarimizda 55 nafar homilador ayolda patologiya aniqlangan edi. Afsuski, o'z vaqtida skrining tekshiruviga kelmayotgan ayollar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Misol uchun, shu yilning boshidan oq tekshiruvga kelishi lozim bo'lgan 200 nafar homilador ayol o'z vaqtida ultratovush tekshiruvdan o'tmagan. Homiladorlikning ilk oylarida o'tilishi kerak bo'lgan skrining tekshiruvida ham ko'plab xastaliklar aniqlanadi va uni bartaraf etishga yo'llanma berilishi kerak.

Onalarga sifatli xizmat ko'rsatish, tug'ruq davridagi o'limlarning oldini olish, chaqaloqlar hayotini asrab qolish maqsadida o'tgan yili viloyatdagi to'rt tumanda, jumladan, Past Darg'omda perinatal markaz tashkil etilgandi. Markazdagi bu o'zgarish nimalarda ko'rinayotgan, deya yo'limizni skrining xonasidan chiqib, perinatal markaz tomon burdik. Tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli tug'ruq majmuasi negizida tashkil etilgan perinatal markaz muntazaviy sanalib, Nurobod aholisiga ham xizmat ko'rsatadi.

- Perinatal markazdagi asosiy yo'nalish chaqaloqlar parvarishi, kichik vaznlarda tug'ilgan go'daklarga ham zarur tibbiy xizmat ko'rsatishdan iborat, - deydi tuman tibbiyot birlashmasi bosh akusher-ginekolog Komila Muqimova. - Shu maqsadda 6 o'rinni chaqaloqlar bo'limi tashkil etildi va barcha zarur jihozlar

bilan ta'minlandi. Reanimatsion post ham tashkil etildi. Ya'ni, ilgari ham tunu kun navbatchi vrach bo'lsa-da, endilikda ularning soni bittaga ko'paydi hamda og'ir ahvolda kelgan homiladorlarga tezlik bilan yordam ko'rsatish imkoniyati yaratildi.

Xodimlarning amaliy ko'nikmalarini oshirish maqsadida respublika ixtisoslashgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filialidan tumanlarga va og'ir tumanlardan markazga xodimlarni uch oy muddatga almashtirib ishlatish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bizning tug'ruq majmuamizga ham viloyat, respublika muassasalaridan shifokorlar kelib, faoliyat yuritadi, xodimlarimiz viloyat muassasalarida ishladi. Bu ishlar natijasida o'tgan yili faqat bitta ona o'limi sodir bo'ldi. Bu ko'rsatkich avvalgi yillardan keskin kamayganligini aytish joiz.

Ilgari 32 haftada tug'ilgan chaqaloqlarni parvarishlash uchun yoki jiddiy xastaliklari bor homilador ayollarni viloyat perinatal markaziga jo'natishga majbur bo'lardik. Endilikda ularni o'zimizda davolash imkoniyati mavjud. Bir oyda markazda 500 ga yaqin tug'ruq bo'ldi va ularning 21 foizi patologik tug'ruqlar sanaladi.

O'tgan yil olti nafar chaqaloq o'ta og'ir holatda, 1058 tasi esa

Homilador ayollar iste'moli uchun zarur bo'lgan 10 mahsulot:

1.  avokado	6.  suli yormasi
2.  gul karam	7.  ismaloq
3.  tuxum	8.  yogurt, qatiq
4.  marjumak	9.  anjir
5.  yong'oq	10.  loviya

bir nechta xastaliklar bilan tug'ildi. Ular orasida ayniqsa, nafas yetishmovchiligi bilan tug'ilganlar ko'pchilikni tashkil etdi.

Tug'ruq majmualarida sharoit yaxshilangani bilan ayol salomatligiga e'tiborli bo'lmas ekan, turli noxushliklarning oldini olish qiyin. Avvalo, u homilador bo'lishdan avval onalikka tayyorlanishi kerak, farzandlari

oralig'idagi muddat bir, ikki emas, uch yil bo'lsa, maqsadga muvofiq. Doimiy ravishda organizmidagi vitamin yetishmovchiligini to'ldirib borishi, hali qiz bola paytidanoq tabiiy, vitaminli mahsulotlarni iste'mol qilishi lozim. Chunki bizda turmush qurgandan so'ng organizmini onalikka tayyorlash haqida gapirib bo'lmaydi. Agar shunday bo'lsa, nur ustiga a'lo



"Hunarli qiz xor bo'lmaydi"

SOG'LOM OILA - JAMIYAT USTUNI

"Zarafshon"ning maxsus sahifasi

nur. Homiladorlikda kuzatilayotgan charchoqlarga e'tiborsiz bo'lmalik, ammo doimiy harakatsiz ham qolmaslik lozim. Ayniqsa, ona bo'layotgan kelinlarni butun oila qo'llab turishi juda muhim.

Bu masala esa baribir birlamchi tibbiyot bilan bevosita bog'liq. Agar yuqorida skrining bo'limi shifokori aytganiday, yanvar oyining o'zida 200 nafar homilador o'z vaqtida tekshiruvga kelgan bo'lsa, ularning sog'lom farzand ko'rishiga kim kafolat beradi? Nega qishloq oilaviy poliklinikalari bu masalaga jiddiy yondashmagan? Qolaversa, yuqorida ta'kidlaganimizday, skrining xonasi eshigi yonida homilador ayollarning navbati juda katta ekanligiga

10 mahsulot:

1.  avokado	6.  suli yormasi
2.  gul karam	7.  ismaloq
3.  tuxum	8.  yogurt, qatiq
4.  marjumak	9.  anjir
5.  yong'oq	10.  loviya

guvoh bo'ldik. O'z vaqtida ko'rikka kelgan ayollar ham kelishni boshlasa, ular necha soat navbatda turadi? Mutasaddilarning aytishicha, bu yerda aholi sonini hisobga olgan holda yana bitta skrining xonasi tashkil etilishi lozim. Bu fikr qo'shimcha izoh talab qilmaydi.

Gulruh MO'MINOVA.

Samarqand davlat meditsina universiteti ixtisoslashtirilgan bolalar xirurgik klinikasining torakal xirurgiya bo'limiga qizilo'ngachning kimyoviy kuyish jarohati bilan keltirilayotgan bolalar soni oshib bormoqda.

Albatta, hech bir ota-ona bunday bo'lishini xohlamaydi. Ammo ularning e'tiborsizligi, kundalik turmushda turli xil maishiy kimyo vositalaridan foydalanishdagi ehtiyotsizligi oxir-oqibat qimmatga tushmoqda. Gap ayni paytda xonadonlarda oshxona, hammom va boshqa sanitariya xonalarida foydalanilayotgan yuvish vositalari haqida bormoqda. To'g'ri, ular yordamida tozalikni saqlash, turli mikroblarni yo'q qilish mumkin. Biroq ularning barchasi tarkibida inson salomatligi, ayniqsa, bolalar uchun xavfli kimyoviy moddalar borligini unutmamak lozim. Bar-

cha yuvish vositalarida mavjud eng kuchli reagent - ishqorning o'zi in-

Tozalik shart, lekin bolangiz salomatligiga e'tiborli bo'ling!



davolash edik. Ular 1,5 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan, ya'ni dunyoni faol o'rganish yoshidagi bolalardir. Aksariyati yorqin qadoqlar, g'ayri-oddiy hidlarga berilib ketib, yuvish yoki tozalash vositalarini iste'mol qilgan. Yana shunday ota-onalar borki, maishiy tozalash vositalaridan tez-tez foydalanish uchun uni piyola, kosa va boshqa idishlarga solib, stol ustiga, deraza oldiga yoki tokchalarga qo'yishadi. Bolalar esa bu zaharli moddani ichimlik deb o'ylab, ichib yuboradi. Bunday holatlar ham tez-tez uchraydi. Oqibatda bolalar qizilo'ngachning og'ir kimyoviy kuyishi bilan bizga olib kelinadi.

Faoliyatimizda akkumulyator suyuqligini ichishi natijasida qizilo'ngachning juda og'ir kuyishi bilan keltirilgan bolani operatsiya qilishimizga to'g'ri kelgan. Ma'lum bo'lishicha, bolaning otasi bu suyuqlikni yaxna ichimlik idishiga solib, mashinada qoldirgan va farzandni uni tatib ko'rgan.

Tarkibida ishqor bo'lgan yuvish vositasini ichgan boshqa bir go'dak nafaqat qizilo'ngachni, balki oshqozon va o'n ikki barmoqlik ichagini ham kuydirib, unda chandiqlik torayish hosil qilgan.

Biz ikkala bolaning ham hayotini saqlab qoldik. Ammo bunga ancha ter to'kisha to'g'ri keldi. Bolalarning o'zi esa ko'p azob-uqubatlarni boshdan kechirdi.

Kezi kelganda ota-onalarga davolash natijalariga ta'sir qiluvchi eng

asosiy omil vaqt ekanligini eslatib o'tmoqchiman. Shunday holat sodir bo'lganda, qancha erta shifoxonaga murojaat qilishsa, davolash samarali, asoratlar kamroq bo'ladi. Kimyoviy modda iste'mol qilgan bolani hech qachon o'zingizcha yoki soxta tabiblar maslahati bilan davolashga, turli giyohlar ichirishga urinmang. Bu kasallikni yanada og'irlashtiradi.

Zamonaviy tibbiyotda qizilo'ngach kuyishi shikastlanish darajasiga qarab turlicha davolanadi. Masalan, birinchi darajali kuyish bo'lsa, konservativ davolash usulini qo'llaymiz. Ilgari ikkinchi va uchinchi darajali kuyishda chandiqlik torayish bilan asoratlangan bemorlarga gastrostoma qo'yishga to'g'ri kelgan, uning yordamida qizilo'ngachni "ip o'tkazgich" yordami bilan bujlash (kengaytirish) amalga oshirilgan. Bunday davolash usuli eng maqbul deb hisoblangan. Bizda bundan boshqa davolash usullarini qo'llash bosqida ham professor Azamat Shamsiyev rahbarligida yosh mutaxassislarimiz tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va samarali, o'zini oqlagan metodlar qo'llanilmoqda. Ayni paytda ikki nafar xodimimiz ushbu yo'nalish bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilish arafasida. Ko'p yillik tadqiqotlar, ilmiy asoslangan xulosalar va natijalar hosilasi bo'lgan bu ilmiy tadqiqotlar kichik bemorlarimizni davolash sifatini yanada takomillashtirishga ishonamiz.

So'nggi uch yil davomida biz ushbu kasallikni davolashning kam invaziv usulidan foydalanmoqdami. Bu usul qizilo'ngachni kengaytirish uchun videoyezofagoskopiya yordamida o'tkazgich qo'yib, bujlashdan iborat. Prosedura yoqimli emas, lekin kam shikastli usul hisoblanadi. Qizilo'ngach kuyishini davolash uzoq vaqt talab qiladi va bunga bola ham, ota-ona ham e'tiborli bo'lishi lozim.

Yaxshisi, maishiy tozalash vositalarini bolalar qo'li yetmaydigan joyda saqlash va ularni bu xavfdan ehtiyot qiling. Shunda hammasi joyida bo'ladi.

Jamshid SHAMSIYEV.

Ahil oila - BAXTLI, noahil oila - VAQTLI

Afsuski, bugun ko'plab oilalar, ish joyi va hatto ta'lim muassasalarida ham bir insonning boshqasiga tazyiq o'tkazishi yoki zo'rvonlik qilishi holatlari tez-tez uchrab turibdi. Bu esa nafaqat undan jabr ko'rgan inson hayoti, balki butun jamiyatga salbiy ta'sir qiladi.

Ayni illatga qarshi kurashish, uning oldini olish "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazining ham asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Kattaqo'rg'on tumani 2024-yilda 124 ta holatda tazyiq va zo'rvonlikka yo'lloq insonlar aniqlanib, ularga kompleks ijtimoiy xizmatlar ko'rsatildi. O'rganishlar muammoga asosan, oilaviy mojarolar, kelishmovchilik va iqtisodiy yetishmovchilik sabab bo'lganligini ko'rsatmoqda.

Zamon rivojlanishi bilan tazyiq va zo'rvonlikni amalga oshirish shakllari ham ko'payib boryapti. Shu vaqtgacha ko'pchilik jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'rvonlik haqida eshitgan bo'lsa, endi uning iqtisodiy shakli, kiberzo'rvonlik va e'tiborsizlik shaklidagi zo'rvonliklar ham ko'paygan. Misol uchun, kiberzo'rvonlikda shaxsni internet va boshqa raqamli texnologiyalar orqali tahqirlash, qo'rqitish, shantaj qilish, kamsitish tushuniladi. Xavfli jihati, bu zo'rvonlikdan hech kim himoyalannagan bo'lib, uning oldini olish ham qiyin hisoblanadi.

Umuman olganda, qaysi turi bo'lishidan qat'i nazar, zo'rvonlikka uchragan har qanday shaxsning jismoniy va ruhiy salomatligiga zarar yetadi, unda qo'rquv,



xavotir, depressiya kabi ruhiy muammolar kelib chiqadi. Oqibatda ular boshqalar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirisholmay, yaklanib qoladi. Bundan eng ko'p jabr ko'ruvchilar voyaga yetmaganlar hisoblanadi. Zo'rvonlik o'zi bilan boshqa ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Uni bartaraf etish, undan jabr ko'rganlarni qo'llab-quvvatlash esa nafaqat mutaxassislar, balki jamiyatning har bir a'zosi uchun muhim. Zero, farvonlik berilmaydi, balki erishiladi.

Zuhra SOBIROVA,
Kattaqo'rg'on shahar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi psixologlar guruhi bosh mutaxassisi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 476 nusxada chop etildi. Buyurtma Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda